


Korxonalar va tashkilotlar

(2019 yil1 aprel holatiga)

2019 yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida 6,4 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 mingtaga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11,7 mingta (15,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 74,6 mingtani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	769	729	41
 Sanoat	14484	14075	871
 Qurilish	5986	5813	466
 Savdo	17761	17264	3429
 Tashish va saqlash	3176	3097	178
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5595	5339	330
 Axborot va aloqa	2917	2820	170
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1450	1416	69
 Boshqa turlari	24970	24107	941



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 aprel holatiga 77,1 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 23,0% savdo, 18,8% sanoat, 7,8% qurilish, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1% tashish va saqlash, 3,8% axborot va aloqa, 1,9% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0% qishloq va o'rmon xo'jaligi hamda 32,3% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (10381 ta), Chilonzor (9927 ta), Mirzo Ulug'bek (8662 ta), Olmazor (8027 ta), Shayxontohur (7673 ta), Uchtepa (7014 ta) va Yakkasaroy (6891 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirobod (6532 ta), Yashnobod (5762 ta), Sergeli (4491) hamda Bektemir (1748 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarning yillar kesimida soni, *mingda*.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 74,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11,7 mingta (15,7 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,1% savdo, 18,9% sanoat, 7,8% qurilish, 7,2% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1% tashish va saqlash, 3,8% axborot va aloqa, 1,9% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0% qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va 32,2% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (10011 ta), Chilonzor (9495 ta), Mirzo Ulug'bek (8468 ta), Olmazor (7933 ta), Shayxontohur (7293 ta), Yakkasaroy (6813 ta), Uchtepa (6743) va Mirobod (6331 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5475 ta), Sergeli (4374 ta) hamda Bektemir (1724 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.04.2017 y.

• **57,2 ming**

01.04.2018 y.

• **62,9 ming**

01.04.2019 y.


• **74,6 ming**



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2019 yil yanvar-mart oylarida 6495 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 50,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Uchtepa (1112 ta), Olmazor (855 ta), Chilonzor (803 ta), Yunusobod (701 ta), Shayxontohur (648 ta), Mirzo Ulug'bek (520 ta) va Mirobod (426 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (413 ta), Yakkasaroy (373 ta), Sergeli (357 ta) hamda Bektemir (287 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (3429 ta), sanoat (871 ta), qurilish (466 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (330 ta) va sohaning boshqa turlarida (941 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (178 ta), axborot va aloqa (170 ta), sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar (69 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (41 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Toshkent shahri bo'yicha jami	3075	100	3221	100	6495	100
Savdo	552	18,0	798	24,8	3429	52,8
Sanoat	842	27,3	628	19,5	871	13,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	87	2,9	73	2,3	41	0,6
Qurilish	279	9,1	376	11,7	466	7,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	299	9,7	247	7,7	330	5,1
Tashish va saqlash	130	4,2	138	4,3	178	2,7
Axborot va aloqa	115	3,7	166	5,2	170	2,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	1,4	56	1,7	69	1,1
Boshqa turlari	728	23,7	739	22,8	941	14,5

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingda






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 aprel holatiga 65,9 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 11,2 mingta, oilaviy korxonalar – 2,4 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 51,0 mingta va boshqalar 1,3 mingtani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5082 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1297 taga yoki 25,5 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2309 tasi qo'shma korxonalar, 2773 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod (824 ta yoki jami ulushi 16,6 %), Yakkasaroy (809 ta yoki 15,9 %), Yunusobod (672 ta yoki 13,2%), Mirzo Ulug'bek (632 ta yoki 12,4%), Chilonzor (593 ta yoki 11,7%), Yashnobod (414 ta yoki 8,2%) va Shayxontohur (360 ta yoki 7,1%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor (289 ta yoki 5,7%), Sergeli (199 ta yoki 3,9%), Uchtepa (155 ta yoki 3,0%) va Bektemir (117 ta yoki 2,3%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p savdoda 1428 tani (28,1 %), sanoatda 1348 tani (26,5 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1095 tani (21,6 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda 455 tani (9,0 %), yashash va ovqatlanish

bo'yicha xizmatlarda 256 tani (5,0 %), axborot va aloqada 206 tani (4,0 %), tashish va saqlashda 163 tani (3,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 74 tani (1,5 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 57 tani (1,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 460 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 211 taga ko'paygan.

Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 75 ta, Rossiya Federatsiyasi – 64 ta, Qozog'iston Respublikasi – 62 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 55 ta, va Koreya Respublikasi – 35 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019 yil boshidan Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %
(yanvar-mart oylarida)



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (169 ta), sanoat (84 ta), qurilish (69 ta), va boshqa faoliyat turlari (138 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018 yil yanvar-mart oylarida		2019 yil yanvar-mart oylarida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	249	100,0	460	100,0
Sanoat	71	28,5	84	18,3
Savdo	81	32,5	169	36,7
Qurilish	23	9,2	69	15,0
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5	2,0	8	1,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	2,8	19	4,1
Axborot va aloqa	15	6,0	20	4,3
Tashish va saqlash	8	3,2	16	3,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1,6	11	2,4
Boshqa turlari	35	14,1	64	13,9



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 aprel holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 65,3 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 aprel holatiga qaraganda 17,5% ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8,7 mingtasi (13,3%) Yunusobod, 8,3 mingtasi (12,6%) Chilonzor, 7,3 mingtasi (11,1%) Mirzo Ulug'bek hamda 7,2 mingtasi (11,0 %) Olmazor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 65,3 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 17,1 mingtasi (26,2 %) – savdo, 13,9 mingtasi (21,4 %) - sanoat, 5,7 mingtasi (8,8 %) - qurilish, 0,7 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,3 mingtasi (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,0 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash, 2,7 mingtasi (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,1 mingtasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 15,4 mingtasi (23,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar-mart oylarida 6,3 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 58,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa tumani (1102 ta), Olmazor tumani (841 ta), Chilonzor tumani (773 ta), Yunusobod tumani (675 ta), Shayxontohur tumani (616 ta), Mirzo Ulug'bek tumani (496 ta), va Mirobod tumani (408 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam, Yashnobod tumani (401 ta), Sergeli tumani (348 ta), Yakkasaroy tumani (359 ta) hamda Bektemir (285 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (3429 ta), sanoatda (868 ta), boshqa faoliyat turlari sohasida (765 ta), qurilishda (463 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (329 ta) va axborot va aloqada (166 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (178 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (66 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (40 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 aprel holatiga 2491 tani tashkil etib, ulardan 2406 tasi yoki 96,6% faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Ro'yxatdan
o'tgan**




**Faoliyat
ko'rsatayotgan**



**Yangi tashkil
etilgan**

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,1% yoki 1036 tasi sanoat, 17,9% yoki 430 tasi savdo, 17,2% yoki 413 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,5% yoki 59 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7% yoki 42 tasi qurilish, 0,7% yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,9% yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5% yoki 37 tasi axborot va aloqa hamda 14,5% yoki 349 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar

2019 yilning yanvar-mart oylarida jami 640 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 383 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2017 yilda 948 ta, 2018 yilda 1023 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning fevralida ushbu ko'rsatkich 640 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 383 taga tugatish kamaygan.

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida
dinamikasi, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Tugatilgan 420 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 153 tasi (23,9 %) savdo, 122 tasi (19,1 %) sanoat, 46 tasi (7,2 %) qurilish, 8 tasi (1,2 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 43 tasi (6,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 33 tasi (5,2 %) tashish va saqlashda, 31 tasi (4,8 %) axborot va aloqada, 11 tasi (1,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 193 tasi (30,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq va o'rmon xo'jaligi turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2018 yil		01.04.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	1023	100,0	640	100,0	

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11	1,1	8	1,3	-3
sanoat	204	19,9	122	19,1	-82
qurilish	112	10,9	46	7,2	-66
savdo	228	22,3	153	23,9	-75
tashish va saqlash	47	4,6	33	5,2	-14
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	101	9,9	43	6,7	-58
axborot va aloqa	38	3,7	31	4,8	-7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	1,8	11	1,7	-7
boshqa turlari	264	25,8	193	30,2	-71

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan



2019 yil yanvar-mart oylarida 598 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 378 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 150 tasi (25,1%) savdo, 122 tasi (20,4%) sanoat, 46 tasi (7,7%) qurilishda, 43 tasi (7,2%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 32 tasi (5,4%) tashish va saqlashda, 28 tasi (4,7%) axborot va aloqada, 11 tasi (1,8%) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 8 tasi (1,3%) qishloq va o'rmon xo'jaligi, hamda 158 tasi (26,4%) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Chilonzor tumanida - 109 ta, Yakkasaroy tumanida - 99 ta, Mirobod tumanida - 67 ta hamda Shayxontohur tumanida - 41 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i Rashidov Aziz
Tel.:71-230-88-31**